| Asosiy atama va tushunchalar | Xor, vokal ansambli, dirijyor, melizm, kalit, janr, mashq, musiqa savodi, musiqa tarixi, musiqa shakli, nota, solist, solo, takt, temp, allegro, adajio. |
| Adabiyotlar ro'yxati | 1. Ivakin M. Xorovaya aranjirovka. Muzika. Uchebnoe posobie. Moskva: 1978.<br>2. Litsvenko V. Prakticheskiy kurs po xorovoy aranjirovke. Uchebnoe posobie- Muzika. Moskva: 1976.<br>3. Sadikov O. Otrivki iz uzbekskix oper. G'.G'ulom. Uchebnoe posobie. Toshkent:1986.<br>4. Sodiqov .O. Vokal ansambli. Musiqa. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2005. |

| | |
|---|---|
| O‘quv mashg’ulotining maqsadi | Ovozlarni taqsimlab ularni alohida rang-barang holda tinglash, ansambl bo‘lib ijro qilish, ijro mahoratini mukammal egallash, repertuarni boyitish. |
| O‘qituvchi oldidagi vazifa | • Vokal asarlari haqida tushuncha berish;<br>• Ko‘p ovozli va unison ijro haqida tushuncha berish;<br>• Ovozlar to‘g‘risida tushuncha berish;<br>• Badiiy ijro va ansambl bo‘lib ijro qilish ko‘nikmalarini hosil qilish;<br>• Vokal ansambllari va xor jamoalarini boshqarish to‘g‘risida tushuncha berish;<br>• Ovozlarning taqsimlanishini nazorat qilish. |
| O‘quv faoliyatining natijalari | • Asarlarni jamoa ijrosiga moslashtirish;<br>• Ovozlar haqida tushunchaga ega bo‘ladi;<br>• Jamoa ijrochiligida repertuar boyligi;<br>• Ovozlarning taqsimlanishini o‘rganadi;<br>• Konsert tadbirlariga dastur tayyorlashni o‘rganadi. |
| O‘qitish metodlari va texnikalari | Amaliy, interaktiv, aqliy hujum, yakka ishlash. |
| O‘qitish vositalari | Tarqatma materiallar, klavir, xor partiturasi, texnika vositalaridan foydalanish (kompyuter, dvd, audio va video tasmalar). |
| O‘qitish sharoiti | Maxsus moslashtirilgan auditoriya |

**<u>Ta’lim texnologiyasi</u>**

| | |
|---|---|
| **Mavzu** | A.Mallaboyev musiqasi, I.Mirzo she’ri “Asl farzandlar madhi” |
| **Maqsad va vazifalar** | A.Mallaboyev musiqasi, I.Mirzo she’ri “Asl farzandlar madhi” Fortepiano jo‘rligidagi bir ovozli vokal asarlarini xor jamoasiga moslashtirish, birgalikda ijro etishning mohiyati, ovozlar, ovoz guruhlari va ijro uslublariga oid fikrlarning vujudga kelishini tushuntirish. Tarqatilgan nota materiallarini talabalar tomonidan qanday o‘zlashtirilganligini, ijro etilishini ta’minlash, ularning bilimlarini baholash. |
| **O‘quv jarayonining mazmuni** | Aranjirovka tushunchasining mohiyati. Uslublar. |
| **O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi** | **<u>Metod:</u>** Og‘zaki bayon, kuylab berish, fortepianoda ijro etib ovozlarni tahlil qilish.<br>**<u>Forma:</u>** Yakka.<br>**<u>Vosita:</u>** kompyuter dasturlari; Final, Sibelius 1,2,3,4,5,6 CD, DVD yozuvlar.<br>**<u>Usul</u>**: Nota matnlari.<br>**<u>Nazorat:</u>** Og‘zaki, amaliy nazorat.<br>**<u>Baholash:</u>** Adolatli. Rag‘batlantirish. |
| **Kutiladigan natijalar** | **<u>O‘qituvchi:</u>**<br>Asar moslashtirishni qisqa vaqt ichida talabalar tomonidan |

| | |
|---|---|
| | o‘zlashtirishiga erishadi. Jamoa uchun ko‘p ovozli asarlarni moslashtiradi. Ijro mahorati va talabalar faolligini oshiradi. Talabalarda darsga nisbatan qiziqishni uyg‘otadi. O‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishadi.<br>**<u>Talaba:</u>**<br>Jamoaga moslashtirish bilimiga ega bo‘ladi, jamoa bo‘lib ijro etishga oid yangi bilimlarga ega bo‘ladi. Jamoa ijrosi va unda ijro qilish bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Eslab qolish qobiliyati kuchayadi. Bir-birini eshitishni o‘rganadi. Dars jarayonida ko‘p musiqiy ma’lumotlarga ega bo‘ladi. |
| **Kelgusi natijalar** | **<u>O‘qituvchi:</u>**<br>Amaliy ijroni o‘zlashtirish va dars jarayoniga tadbiq etish, takomillashtirish, o‘z ustida ishlash, asarni hayotiy voqealar bilan bog‘lash. O‘zining pedagogik va metodik mahoratini oshirish.<br>**<u>Talaba:</u>**<br>Amaliy ijro asosida nota matnlari bilan mustaqil ishlashni o‘rganish, o‘z ijrosini jamoa ijrosiga moslashtirish. Shu asar asosida qo‘shimcha materiallarni topish, ularni tahlil qilish. Ko‘nikma va malakalarni hosil qilish. |

## Mustaqil ta’lim uchun tavsiyalar

Talaba yakka mashg‘ulotlarda olingan bilim va malakalarni mustahkamlash uchun o‘z ustida muntazam mustaqil shug‘ullanishi talab etiladi. Buning uchun talaba berilgan xor asarlarini moslashtirish talablariga ko‘ra u yoki bu turdagi xor asarlarini har xil turdagi xor asarlariga aylantirish talabaning ancha keng doirada fikr yuritishini ko‘zda tutadi.

## “Aranjirovka” fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezoni.

“Aranjirovka” fani bo‘yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy hamda yakuniy nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma’lumotlar fan bo‘yicha birinchi mashg‘ulotda talabalarga e’lon qilinadi.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlari o‘tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN)** - talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg‘ulotlarda amaliy ijro uy vazifalarining bajarilishini nazorat qilish va shu kabi boshqa shakllarda o‘tkazilishi mumkin;
- **yakuniy nazorat (YAN)** - semestr yakunida muayyan fan bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash

usuli. Yakuniy nazorat asosan oʻrganilgan musiqiy asarlar boʻyicha konsert dasturini namoyish qilish orqali baholanadi.

**JN** oʻtkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda oʻrganib boriladi va uni oʻtkazish tartiblari buzilgan hollarda, **JN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **JN** qayta oʻtkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrugʻi bilan ichki nazorat va monitoring boʻlimi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YAN** ni oʻtkazish jarayoni muntazam ravishda oʻrganib boriladi va uni oʻtkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YAN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YAN** qayta oʻtkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, koʻnikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan boʻyicha oʻzlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

"Aranjirovka" fani boʻyicha talabalarning semestr davomidagi oʻzlashtirish koʻrsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari boʻyicha quyidagicha taqsimlanadi: Y.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.ga taqsimlanadi.

| Ball | Baho | Talabalarning bilim darajasi |
|---|---|---|
| 86-100 | A'lo | Xalq cholgʻulari toʻgʻrisida aniq tasavvur va bilimga ega boʻlish, Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qoʻllay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, ijro etish. Tasavvurga ega boʻlish. |
| 71-85 | Yaxshi | Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qoʻllay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, ijro eta bilish. Tasavvurga ega boʻlish. |
| 55-70 | Qoniqarli | Mohiyatini tushuntirish. Bilish, ijro eta bilish Tasavvurga ega boʻlish. |
| 0-54 | Qoniqarsiz | Aniq tasavvurga ega boʻlmaslik. Bilmaslik. Ijro qila olmaslik. |

Fan boʻyicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past boʻlgan oʻzlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

Talabalarning oʻquv fani boʻyicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

Talabaning fan boʻyicha reytingi quyidagicha anikdanadi: K =V*O' 100 bu yerda: *V*- semestrda fanga ajratilgan umumiy oʻquv yuklamasi (soatlarda); *Oʻ* - fan boʻyicha oʻzlashtirish darajasi (ballarda).

Fan boʻyicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball toʻplagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

• Joriy **JN** turlari boʻyicha 55 ball va undan yuqori ballni toʻplagan talaba fanni oʻzlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan boʻyicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yoʻl qoʻyiladi.

• Talabaning semestr davomida fan bo‘yicha to‘plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to‘plagan ballari yig‘indisiga teng.

• **JN** va **YAN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o‘tkaziladi. **YAN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o‘tkaziladi.

• **JN** nazoratlarda saralash balidan kam ball to‘plagan va uzrli sabablarga ko‘ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so‘nggi joriy nazorat uchun esa yakuniy nazoratgacha bo‘lgan muddat beriladi.

- Talabaning semestrda **JN** turlari bo‘yicha to‘plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo‘lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo‘yicha to‘plagan ballari yig‘indisi 55 baldan kam bo‘lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.
- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo‘lsa, fan bo‘yicha nazorat turi natijalari e’lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko‘ra rektor buyrug‘i bilan 3 (uch) a’zodan kam bo‘lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.
- Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko‘rib chiqib, shu kunning o‘zida xulosasini bildiradi.
- Baholashning o‘rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o‘tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o‘quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo‘limi tomonidan nazorat qilinadi.

**Talabalar JN dan to‘playdigan ballarning namunaviy mezonlari**

| № | Ko‘rsatkichlar | JN ballari | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Maks. | 1-JN | 2-JN | 3-JN | 4-JN |
| 1 | Darslarga qatnashganlik va o‘zlashtirishi darajasi. | 17 | 0-4 | 0-4 | 0-4 | 0-5 |
| 2 | Amaliy mashg‘ulotlardagi faolligi, ijodiy jarayonlardagi mahorati. | 18 | 0-4 | 0-4 | 0-5 | 0-5 |
| 3 | Mustaqil ta’lim topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi. | 17 | 0-4 | 0-5 | 0-4 | 0-4 |
| 4 | Ijodiy jarayondagi repertuarlarning ijro sifati. Tashkilotchiligi. | 18 | 0-5 | 0-5 | 0-4 | 0-4 |
| **Jami JN ballari** | | **70** | **17** | **18** | **17** | **18** |

*YAN konsert dasturi ijrosi natijasiga qarab maksimal 30 ball orqali baholanadi.*

## Adabiyotlar ro‘yxati

1.M. Ivakin. “Xorovaya aranjirovka” 1978 g.
2.V.Litsvenko. “Prakticheskiy kurs po xorovoy aranjirovke” 1976 g.

3.N.Qoziyev. “Xor dirijyorligi xrestomatiyasi”. 1,2,3,4 qism. O‘qituvchi.T. b 1975-1978 y.
1. N.Sharafiyeva. “Xor sinfi”. Musiqa. T. 2005 y.

**Internet saytlari:**

1. www.jazz.ru
2. www.atmuzik.ru
3. www. universalia. nov. ru / instruments.
4. www. muzik. uz
5. www. classicmuzik.uz
6. www. ixlos.uz

## 4. «ARANJIROVKA» FANINI O‘QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

| Fakultet, kafedra, o‘qitish bosqichi | O‘quv predmeti | O‘quv mashg’uloti mavzusining o‘quv dasturidagi o‘rni |
|---|---|---|
| “Vokal jamoalariga rahbarlik” bo‘limi 3-kurs | «Aranjirovka» | 1 soat |

| | | |
|---|---|---|
| Sana: ____________ | O‘quv guruhi – VJR<br>Talabalar soni - ____ ta | O‘qituvchi: S.Muzafarova |
| Mavzuning nomi | ________________________________________ | |
| Mashg‘ulot rejasi | 1.Ovozlar bilan tanishish<br>2.Ovozlarning diapazonini o‘rganish<br>3.Nota matnlarini yozish madaniyatiga ega bo‘lish<br>4.Ovozlarni taqsimlash (moslashtirish) | |
| Asosiy atama va tushunchalar | Xor, vokal ansambli, dirijyor, melizm, kalit, janr, mashq, musiqa savodi, musiqa tarixi, musiqa shakli, nota, solist, solo, takt, temp, allegro, adajio. | |

| | |
|---|---|
| Adabiyotlar ro'yxati | 5.М. Ивакин. "Хоровая аранжировка" 1978 г.<br>6.В.Литсвенко. "Практический курс по хоровой аранжировке" 1976 г.<br>7.Н.Қозиев. "Хор дирижёрлиги хрестоматияси". 1,2,3,4 қисм. Ўқитувчи.Т. 1975-1978 й.<br>8. Н.Шарафиева. "Хор синфи". Мусиқа. Т. 2005 й. |
| O'quv mashg'ulotining maqsadi | Ovozlarni taqsimlab ularni alohida rang-barang holda tinglash, ansambl bo'lib ijro qilish, ijro mahoratini mukammal egallash, repertuarni boyitish. |
| O'qituvchi oldidagi vazifa | • Vokal asarlari haqida tushuncha berish;<br>• Ko'p ovozli va unison ijro haqida tushuncha berish;<br>• Ovozlar to'g'risida tushuncha berish;<br>• Badiiy ijro va ansambl bo'lib ijro qilish ko'nikmalarini hosil qilish;<br>• Vokal ansambllari va xor jamoalarini boshqarish to'g'risida tushuncha berish;<br>• Ovozlarning taqsimlanishini nazorat qilish. |
| O'quv faoliyatining natijalari | • Asarlarni jamoa ijrosiga moslashtirish;<br>• Ovozlar haqida tushunchaga ega bo'ladi;<br>• Jamoa ijrochiligida repertuar boyligi;<br>• Ovozlarning taqsimlanishini o'rganadi;<br>• Konsert tadbirlariga dastur tayyorlashni o'rganadi. |
| O'qitish metodlari va texnikalari | Amaliy, interaktiv, aqliy hujum, yakka ishlash. |
| O'qitish vositalari | Tarqatma materiallar, klavir, xor partiturasi, texnika vositalaridan foydalanish (kompyuter, dvd, audio va video tasmalar). |
| O'qitish sharoiti | Maxsus moslashtirilgan auditoriya |

## Ta'lim texnologiyasi

A.Mallaboyev musiqasi, I.Mirzo she'ri "Asl farzandlar madhi"

| | |
|---|---|
| **Mavzu** | A.Mallaboyev musiqasi, I.Mirzo she'ri "Asl farzandlar madhi" |
| **Maqsad va vazifalar** | Fortepiano jo'rligidagi bir ovozli vokal asarlarini xor jamoasiga moslashtirish, birgalikda ijro etishning mohiyati, ovozlar, ovoz guruhlari va ijro uslublariga oid fikrlarning vujudga kelishini tushuntirish. Tarqatilgan nota materiallarini talabalar tomonidan qanday o'zlashtirilganligini, ijro etilishini ta'minlash, ularning bilimlarini baholash. |
| **O'quv jarayonining mazmuni** | Jamoa ijrosiga moslashtirish tushunchasining mohiyati. Uslublar. |
| **O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi** | **Metod:** Og'zaki bayon, kuylab berish, fortepianoda ijro etib ovozlarni tahlil qilish.<br>**Forma:** Yakka. |

| | |
|---|---|
| | **Vosita:** kompyuter dasturlari; Final, Sibelius 1,2,3,4,5,6 CD, DVD yozuvlar.<br>**Usul**: Nota matnlari.<br>**Nazorat:** Og'zaki, amaliy nazorat.<br>**Baholash:** Adolatli. Rag'batlantirish. |
| **Kutiladigan natijalar** | **O'qituvchi:**<br>Asar moslashtirishni qisqa vaqt ichida talabalar tomonidan o'zlashtirishiga erishadi. Jamoa uchun ko'p ovozli asarlarni moslashtiradi. Ijro mahorati va talabalar faolligini oshiradi. Talabalarda darsga nisbatan qiziqishni uyg'otadi. O'z oldiga qo'ygan maqsadga erishadi.<br>**Talaba:**<br>Jamoaga moslashtirish bilimiga ega bo'ladi, jamoa bo'lib ijro etishga oid yangi bilimlarga ega bo'ladi. Jamoa ijrosi va unda ijro qilish bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Eslab qolish qobiliyati kuchayadi. Bir-birini eshitishni o'rganadi. Dars jarayonida ko'p musiqiy ma'lumotlarga ega bo'ladi. |
| **Kelgusi natijalar** | **O'qituvchi:**<br>Amaliy ijroni o'zlashtirish va dars jarayoniga tadbiq etish, takomillashtirish, o'z ustida ishlash, asarni hayotiy voqealar bilan bog'lash. O'zining pedagogik va metodik mahoratini oshirish.<br>**Talaba:**<br>Amaliy ijro asosida nota matnlari bilan mustaqil ishlashni o'rganish, o'z ijrosini jamoa ijrosiga moslashtirish. Shu asar asosida qo'shimcha materiallarni topish, ularni tahlil qilish. Ko'nikma va malakalarni hosil qilish. |

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiyalar**

Talaba yakka mashg'ulotlarda olingan bilim va malakalarni mustahkamlash uchun o'z ustida muntazam mustaqil shug'ullanishi talab etiladi. Buning uchun talaba berilgan xor asarlarini moslashtirish talablariga ko'ra u yoki bu turdagi xor asarlarini har xil turdagi xor asarlariga aylantirish talabaning ancha keng doirada fikr yuritishini ko'zda tutadi.

## 3. 3-KURS UCHUN TA'LIM TEXNOLOGIYASI

| |
|---|
| **Fan**: «Aranjirovka» **Auditoriya:** ____<br>3-kurs<br><br>**Mavzu:** **Bir turdagi ovozli xor asarini 2, 3, 4 ovozli xor asariga aylantirish. Aralash 4 ovozli xor asarini bir turdagi 4 ovozli xor asariga aylantirish**<br>**Kalit so'zlar** soprano, tenor, alt, bas, aralash xor, bir turdagi ovozli xor, aylantirish |

| |
|---|
| **Soatlar soni**: 14 soat<br><br>**Ish joyi**: O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, “Vokal” kafedrasi |
| |
| ***O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi***<br><br>***Metod:*** *nazariy va amaliy ko‘rsatmalar*<br><br>**SHakl:** YAkka<br><br>**Vositalar (*texnik va didaktik*):** *tarqatma material*<br><br>**Nazorat:** Oғzaki nazorat, o‘z-o‘zini nazorat qilish, savol-javob va ko‘rsatib berish<br><br>**Baholash:** Raғbatlantirish |

**4 kurs – 7-semestrda – 40 soat**

**1-mashғulot.** Aralash 4 ovozli xor asarini bir turdagi 3 ovozli xor asariga aylantirish. (4 soat)
Reja: 1. Soprano 1 soprano 2 va alt ovozli xor asariga aylantirish.
2. Soprano va alt 1 alt 2 ovozli xor asariga aylantirish.
3. Tenor 1 tenor 2 va bas ovozli xor asariga aylantirish.
4. Tenor va bas 1 bas 2 ovozli xor asariga aylantirish.

**2-mashғulot.** Aralash 4 ovozli xor asarini bir turdagi 2 ovozli xor asariga aylantirish. (4 soat)
Reja: 1. Soprano va alt ovozli xor asarilariga aylantirish.
2. Tenor va bas ovozli xor asarilariga aylantirish.

**3-mashғulot.** Aralash ko‘p ovozli xor asarini aralash 4 ovozli xor asariga aylantirish. (4 soat)
Reja: 1. Soprano 1, soprano 2, alt, tenor va bas ovozli xor asarilariga aylantirish.
2. Soprano, alt, tenor 1, tenor 2 va bas ovozli xor asarilariga aylantirish.
3. Soprano, alt, tenor, bas 1, bas 2 ovozli xor asarilariga aylantirish.
4. Soprano, alt 1, alt 2, tenor, bas ovozli xor asarilariga aylantirish.

**4-mashғulot.** Bir turdagi xor asarlarini boshqa turdagi xor asarlariga aylantirish. (6 soat)
Reja: 1. 4 ovozli ayollar xor asarini 4 ovozli erkaklar xor asariga aylantirish.
2. 4 ovozli erkaklar xor asarini 4 ovozli ayollar xor asariga aylantirish.

**5-mashғulot.** Bir turdagi 4 ovozli xor asarini 4 ovozli aralash xor asariga aylantirish. (4 soat)
Reja: 1. Soprano 1, soprano 2, alt 1, alt 2 ovozli xor asarini 4 ovozli aralash ovozli xor asariga aylantirish.
2. Tenor 1, tenor 2, bas 1 bas 2 ovozli xor asarini 4 ovozli aralash xor asariga aylantirish.

**6-mashғulot.** 4 ovozli aralash xor asarini bir turdagi 4 ovozli xor asariga aylantirish. (4 soat)
Reja: 1. 4 ovozli aralash xor asarini soprano 1, soprano 2, alt 1, alt 2 ovozli xor asariga aylantirish.
2. 4 ovozli aralash xor asarini tenor 1, tenor 2, bas 1 bas 2 ovozli xor asariga aylantirish.

**7-mashғulot.** Bir turdagi 4 ovozli xor asarini bir turdagi 3 ovozli xor asariga aylantirish. (4 soat)
Reja: 1. 4 ovozli ayollar xor asarini soprano 1, soprano 2, alt ovozli xor asariga aylantirish.
2. 4 ovozli erkaklar xor asarini tenor 1, tenor 2, bas ovozli xor asariga aylantirish.
3. 4 ovozli ayollar xor asarini soprano, alt 1, alt 2 ovozli xor asariga aylantirish.
4. 4 ovozli erkaklar xori asarini tenor, bas 1 bas 2 ovozli xor asariga aylantirish.

**8-mashғulot.** 4 ovozli aralash xor asarini 3 ovozli aralash xor asariga aylantirish. (4 soat)
Reja: 1. 4 ovozli aralash xor asarini soprano, alt, tenor-bas unison ovozlariga aylantirish.
2. 4 ovozli aralash xor asarini sorano-alt unison, tenor, bas ovozlariga aylantirish.

**9-mashғulot.** 3 ovozli aralash xor asarini bir turdagi 3 ovozli xor asariga aylantirish. (6 soat)
Reja: 1. Soprano, alt va erkaklar ovozini soprano 1, soprano 2 va alt ovozlariga aylantirish.
2. Soprano, alt va erkaklar ovozini soprano, alt 1 va alt 2 ovozlariga aylantirish.

## 4-KURS UCHUN TA'LIM TEXNOLOGIYASI

| |
|---|
| **Fan**: «Aranjirovka» **Auditoriya:** ____<br>4-kurs<br><br>**Mavzu**: **4 ovozli ayollar xor asarini 4 ovozli erkaklar xor asariga aylantirish, 4** |

| |
|---|
| **ovozli aralash xor asarini soprana 1, 2; alt 1, 2 ovozli xor asariga aylantirish**<br><br>**Kalit so'zlar** soprano, tenor, alt, bas, aralash xor, bir turdagi ovozli xor, aylantirish<br><br>**Soatlar soni**: 40 soat<br><br>**Ish joyi**: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, "Vokal" kafedrasi |
| |
| ***O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi***<br><br>***Metod:** nazariy va amaliy ko'rsatmalar*<br><br>**SHakl:** YAkka<br><br>**Vositalar (*texnik va didaktik*):** *tarqatma material*<br><br>**Nazorat:** Oғzaki nazorat, o'z-o'zini nazorat qilish, savol-javob va ko'rsatib berish<br><br>**Baholash:** Raғbatlantirish |

**4 kurs – 8-semestr – 6 soat**

**1-mashғulot.** Fortepiano jo'rligidagi bir ovozli vokal asarlarini xor asarlariga aylantirish. (2 soat)
Reja: 1. Fortepiano jo'rligidagi bir ovozli vokal asarlarini soprano va alt ovozli xor asarlariga aylantirish.
2. Fortepiano jo'rligidagi bir ovozli vokal asarlarini tenor va bas ovozli xor asarlariga aylantirish.

**2-mashғulot.** 4 ovozli aralash xor asarini bir turdagi 4 ovozli xor asariga aylantirish. (2 soat)
Reja: 1. 4 ovozli aralash xor asarini soprano 1, soprano 2, alt 1, alt 2 ovozli xor asariga aylantirish.
2. 4 ovozli aralash xor asarini tenor 1, tenor 2, bas 1 bas 2 ovozli xor asariga aylantirish.

**3-mashғulot.** Aralash 4 ovozli xor asarlarini bir turdagi 4 ovozli xor asarlariga aylantirish. (2 soat)
Reja: 1. Soprano 1 soprano 2 va alt 1 alt 2 ovozli xor asarilariga aylantirish.
2. Tenor 1 tenor 2 va bas 1 bas 2 ovozli xor asarilariga aylantirish.

## 4-KURS UCHUN TA'LIM TEXNOLOGIYASI

| |
|---|
| **Fan**: «Aranjirovka» **Auditoriya:** ____ |

| |
|---|
| 4-kurs<br><br>**Mavzu:** **Fortepiano jo‘rligidagi bir ovozli vokal asarlarini xor asarlariga aylantirish.**<br><br>**Kalit so‘zlar** soprano, tenor, alt, bas, aralash xor, bir turdagi ovozli xor, aylantirish, fortepiano jo‘rligi<br><br>**Soatlar soni**: 6 soat<br><br>**Ish joyi**: O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, “Vokal” kafedrasi |
| |
| ***O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi***<br>***Metod:*** *nazariy va amaliy ko‘rsatmalar*<br><br>**SHakl:** YAkka<br><br>**Vositalar (*texnik va didaktik*):** *tarqatma material*<br><br>**Nazorat:** Oғzaki nazorat, o‘z-o‘zini nazorat qilish, savol-javob va ko‘rsatib berish<br>**Baholash:** Raғbatlantirish |

## 4. Masalalar, mashqlar to‘plami

### «Aranjirovka» fani haqida

«Aranjirovka» o‘rganish uchun, u haqda ma’lumotga ega bo‘lish kerak.

Xor musiqani cholғu jo‘rligida yoki jo‘rsiz (a’capella) yo‘lda ijro etuvchi jamoadir. Xor atamasi yunoncha “horos” so‘zidan olingan bo‘lib, “to‘da”, “yiғin” degan ma’noni anglatadi.

Xor 2 turga ega:

1. Bir turdagi xor
2. Aralash xor.

Bir turdagi xorga – ayollar, erkaklar va bolalar xori kiradi.

Aralash xor esa turli ovozlardan, ya’ni ayollar va erkaklar, bolalar va ayollar, erkaklar va bolalar ovozlaridan tashkil topadi.

Bu ovozlar xor partiyalari deb ataladi:

a) ayollar xorida – soprano va alt,
b) erkaklar xorida – tenor va bas,
v) bolalar xorida – diskand va alt,
g) aralash xordan – soprano, alt, tenor, bas.

Jamoa ijrosiga moslashtirish uchun xor partiyalari diapazonini yaxshi bilmoq darkor.

Aralash xordagi yuqori ayollar ovozi soprano partiyasining diapazoni – birinchi oktava *do* dan ikkinchi oktava *lya, si* gacha.

Nota yozuvida bu partiya sol kalitida yoziladi.



Aralash xordagi pastki ayollar ovozi alt partiyasining diapazoni – kichik oktava *sol* dan ikkinchi oktava *mi* gacha.

Nota yozuvida bu partiya sol kalitida yoziladi.



Aralash xordagi yuqori erkaklar ovozi tenor partiyasining diapazoni – kichik oktava *do* dan birinchi oktava *lya* gacha.

SHu o‘rinda bir narsani esga olish joizdir, tenor partiyasi nota yozuvida sol kalitida yoziladi, kuylanganda bir oktava pastda kuylanadi.



Aralash xordagi pastki erkaklar ovozi bas partiyasining diapazoni – kichik oktava *fa* dan birinchi oktava *mi* gacha.

Nota yozuvida bu partiya bas kalitida yoziladi.



Aralash xorning umumiy diapazoni katta oktava *fa* dan ikkinchi oktava *lya* gacha:



«Aranjirovka» jarayonida yozuv savodi katta ahamiyatga ega. Xor partiturasining nota qatorlarini chap tomondan bir-biri bilan birlashtirib turuvchi ikkita chiziq-akkolada deb nomlanadi. Akkolada frantsuzcha so‘z bo‘lib, “quchoғida”, yoki “qavs ichida” degan ma’noni bildiradi.

Akkolada belgisi hamma partiyalar bir vaqtda kuylanishi kerakligini ko‘rsatadi.

Ayollar xori uchun:






Erkaklar xori uchun:







Aralash xor uchun:







Ma’lum «Aranjirovka» amalga oshirish jarayonida uning kuylash yo‘li, xor partiyalarining soni, ovozlarning texnik sharoiti, ularning diapazoni va boshqa xususiyatlarni hisobga olish lozim.

**Bir turdagi 1 ovozli xor asarini 2 ovozli asariga xor moslashtirish**

Ushbu moslashtirish 3 xilda ko‘rinadi:

1. Soprano va alt yoki tenor va bas ovozli xor asariga moslashtirish.

2. Soprano va tenor yoki alt va bas ovozli xor asariga moslashtirish.
3. Diskand va alt (bolalar xori uchun) ovozli xor asariga moslashtirish.

Bu moslashtirishning birinchi tur xilini unison yo‘li bilan, ikkinchi xilini esa oktavali unison yo‘li bilan amalga oshirish mumkin.

YA’ni:




Misol:

## G'uncha labi handonim

(o'zbek xalq qo'shig'i)

B.Umedjanov qayta ishlagan




## G'uncha labi handonim

(O'zbek xalq qo'shig'i)

B.Umedjonov qayta ishlagan




## Ruboiy

Umar Xayyom she`ri

B.Umedjonov musiqasi




## Ruboiy

Umar Xayyom she`ri

B.Umedjonov musiqasi



# Ruboiy

Umar Xayyom she`ri

B.Umedjonov musiqasi




# Ruboiy

Umar Xayyom she`ri

B.Umedjonov musiqasi




# Eng maza, eh, maza

P.Mo'min she`ri

N.Norxo'jayev musiqasi




# Eng maza, eh, maza

P.Mo'min she`ri

N.Norxo'jayev musiqasi




## Bir turdagi 1 ovozli xor asarini mustaqil 2 ovozli xorga asariga moslashtirish

Bu moslashtirish 3 turga ega:

1. Ayollar xori uchun – soprano va alt ovozli xor asariga moslashtirish.
2. Erkaklar xori uchun – tenor va bas ovozli xor asariga moslashtirish.
3. Bolalar xori uchun – diskand va alt ovozli xor asariga moslashtirish.

Bunday moslashtirish ikki ovozlilik tushunachalari asosida amalga oshiriladi. Berilgan 1 ovozli asarni 2 ovozga aylantirish uchun qulay intervallardan foydalanish lozim. Tuzilgan intervallar (ikki ovozlilik) partiyalar diapazonidan chiqib ketmasligi, quloqqa yoqimli va kesishuv holatlaridan holi bo‘lmoғi kerak.

Birinchi kuy asosida tuzilgan ikkinchi mustaqil ovoz sodda, kuychan va birinchisiga hamohang bo‘lishi lozim.

## Bizni ayvon

Xalq so'zi

T.Jalilov musiqasi




## Bizni ayvon

Xalq so'zi

T.Jalilov musiqasi
S.Muzafarova xor uchun moslashtirgan




## Bug'macha bilagim

(O'zbek xalq qo'shig'i)




## Bug'macha bilagim

(O'zbek xalq qo'shig'i)

B.Umedjonov ayollar xori
uchun moslashtirgan




## Zarra gul

(Tojik xalq qo'shig'i)



# Zarra gul

(Tojik xalq qo'shig'i)

M.Burxonov qayta ishlagan




# Tomog'imga tekkizmay

U.Qurbonov she`ri

A.Mansurov musiqasi




# Tomog'imga tekkizmay

U.Qurbonov she`ri

A.Mansurov musiqasi




**Bir turdagi 1 ovozli xor asarini 3 ovozli asariga xor moslashtirish**

Bu moslashtirish ham 3 turga ega:

a. Soprano I, soprano II, alt yoki tenor I, tenor II, bas ovozli xor asariga moslashtirish.

b. Soprano, alt I, alt II yoki tenor, bas I, bas II ovozli xor asariga moslashtirish.

c. Bolalar xori uchun – soprano I, soprano II, alt yoki soprano, alt I, alt II ovozli xor asariga moslashtirish.

Bu yerda talabaning ustoz yordamida, garmoniya faniga tayangan holda bir oz fantaziya qilishi kerak bo‘ladi. Avvalo, berilgan 1 ovozli asarni garmoniyalashtirish lozim. Bu taxminan mana bunday ko‘rinadi:

# Yoshlar ramziy qo'shig'i

A.Mansurov so'zi va musiqasi



So‘ngra shu garmoniya asosida partiyalarning tessituralariga moslab xor partiyalari (ovozlar) taqsimlanib chiqiladi (bastalanadi).

## Yoshlar ramziy qo'shig'i

A.Mansurov so'zi va musiqasi
J.Shukurov xor uchun moslashtirgan

**Maestoso**




## Hay, yor-yor, yorammo

(O'zbek xalq qo'shig'i)

*f* **Jonliroq, yengil**




## Hay, yor-yor, yorammo

(O'zbek xalq qo'shig'i)

B.Umedjonov moslashtirgan

**Jonliroq, yengil**




## Oq kaptar

Sh.Yormatov musiqasi

**Moderato**



# Oq kaptar

Sh.Yormatov musiqasi




# Maysa

Sh.Yormatov musiqasi




# Maysa

Sh.Yormatov musiqasi




## Bir turdagi 1 ovozli xor asarini 4 ovozli aralash xorga asariga moslashtirish

Bu moslashtirish asosiy 1 ko‘rinishga ega:

1. Soprano, alt, tenor va bas ovozli xor asariga moslashtirish.

Bolalar xori uchun soprano I, soprano II, alt I, alt II.

Bu moslashtirish ancha murakkab hisoblanib, uning aniq sxemasi yo‘q va talaba yuqorida aytib o‘tganimizdek, solfedjio, garmoniya, vokal-xor nazariyalarini yaxshi bilgani holda ehtiyotkorlik bilan yondashishi kerak. Moslashtirish usuli bundan oldingi mavzu (*Bir turdagi 1 ovozli xor asarini 3 ovozli xor asariga moslashtirish*) asosida bo‘ladi. YA’ni, bu yerda ham moslashtirish 1 ovozli asarni garmoniyalashtirishdan boshlanadi.

# Go'zal

B.Umedjonov musiqasi




Asosiy melodiya yuqori ovozga beriladi, pastki partiyalarga garmoniyaga asoslanib melodiya bastalanadi. Xor partiyalarida uchrashi mumkin bo‘lgan bir-biri bilan kesishish (perekreщivaniye) holatlariga yo‘l qo‘yilmaslikka e’tibor berish talab qilinadi.

# Go'zal

B.Umedjonov musiqasi




# Oq kaptar

Sh.Yormatov musiqasi




# Oq kaptar

Sh.Yormatov musiqasi



## Aralash 4 ovozli xor asarini bir turdagi 4 ovozli xorga asariga moslashtirish

1. Soprano I, soprano II, alt I, alt II ovozli xor asariga moslashtirish.
2. Tenor I, tenor II, bas I, bas II ovozli xor asariga moslashtirish.

Bunday moslashtirishning murakkab bo‘lgan bir nechta yo‘llari bor. O‘zbek xor san’ati uchun eng qulayi quyidagi sxemada aks ettirilgan. Bu yo‘ldagi moslashtirish (aralash xordan bir turdagi xor asariga) aralash xor fakturasini saqlab qoladi. Bu yo‘l erkak ovozlari baland registrda, ayollar – pastki registrda yozilgan asarlarda ko‘proq ishlatiladi. Moslashtirish jarayonida (basning alt II partiyasiga berilishi) kichik oktava soldan past bo‘lmasligi lozim.

Aralash xordan bir turdagi ayollar xoriga moslashtirish:




E.Ohunova so'zi

### Sayri bog'

S.Yo'ldoshev musiqasi
N.Sharafiyeva qayta ishlagan




E.Ohunova so'zi

### Sayri bog'

S.Yo'ldoshev musiqasi
N.Sharafiyeva qayta ishlagan




Aralash xordan bir turdagi erkaklar xoriga moslashtirish:




Bax

O.Xaydarova she`ri

B.Umedjanov musiqasi




## Baxt nuri

O.Xaydarova she`ri

B.Umedjonov musiqasi




**Aralash 4 ovozli xor asarini bir turdagi 3 ovozli xorga moslashtirish**

Bu moslashtirish 4 xilda ko‘rinadi:

1. Soprano I, soprano II, alt ovozli xor asariga moslashtirish.
2. Soprano, alt I, alt II ovozli xor asariga moslashtirish.
3. Tenor I, tenor II, bas ovozli xor asariga moslashtirish.
4. Tenor, bas I, bas II ovozli xor asariga moslashtirish.

Bunday moslashtirish quyidagi tarzda amalga oshiriladi. Aralash xordagi yuqori melodiya bir turdagi xorning yuqori partiyasiga o‘tkaziladi. Faqatgina uning oktava jarangi o‘zgarishi mumkin. Qachon-ki, moslashtirish erkaklar xori uchun qilinayotgan bo‘lsa. Bir turdagi xorning qolgan 2 ovozi (o‘rta va pastki) aralash xordagi boshqa 3 ta ovozning garmonik jarangi asosida hosil qilinadi. Bu moslashtirish amalga oshirilayotganda aralash xordagi 3 ovozning qaysi birinidir aniq ko‘chirib o‘tish shart emas, chunki bu bir turdagi xor akkordining to‘liq bo‘lmagan jarangiga olib kelishi mumkin. Bu jarayonda akkorddagi ovozlarning to‘ғri joylashuvi muhim hisoblanadi.

(T o‘rniga T 6 yoki T 6/4 ishlatish mumkin).

Aralash 4 ovozli xor asarini 3 ovozli ayollar xori uchun moslashtirish:



Bu holatda xor partiyalarining birortasidan voz kechiladi (bo‘lingan chiziqlar “borishi mumkin” degan ma’noni bildiradi).

## Yayra go'zal

A.Isroil she`ri

N.Hasanov musiqasi
S.Muzafarova xor uchun moslashtirgan




## Yayra go'zal

A.Isroil she`ri

N.Hasanov musiqasi
S.Muzafarova xor uchun moslashtirgan




## Yayra go'zal

A.Isroil she`ri

N.Hasanov musiqasi
S.Muzafarova xor uchun moslashtirgan



# Yayra go'zal

A.Isroil she`ri

N.Hasanov musiqasi
S.Muzafarova xor uchun moslashtirgan




Aralash 4 ovozli xor asarini 3 ovozli erkaklar xori uchun moslashtirish:




# Bibijan

(Turkman xalq qo'shig'i)

E.Nechayev qayta ishlagan




# Bibijan

(turkman xalq qo'shig'i)

E.Nechayev qayta ishlagan



## Bibijan

(Turkman xalq qo'shig'i)

E.Nechayev qayta ishlagan




**Aralash 4 ovozli xor asarini bir turdagi 2 ovozli asariga xor moslashtirish**

1. Soprano va alt ovozli asariga xor moslashtirish.

2. Tenor va bas ovozli asariga xor moslashtirish.

Bu moslashtirishda xuddi bundan oldingi mavzudagi kabi (5-mavzu) aralash xorning yuqori ovozi bir turdagi xor yuqori ovoziga beriladi. 2 ovozli aralash xorning boshqa ovozlari garmoniyasi asosida tuziladi.

Bir turdagi 2 ovozli xor asariga moslashtirishning asosiy vazifasi yuqori ovoz yo‘li bilan yangi tuzilgan pastki ovoz o‘rtasidagi intervalning to‘ғri tanlanishidadir. Ushbu interval 4 ovozli akkordning garmonik koloritini (sayqal) aniqroq ko‘rsatmoғi lozim.

Masalan, asarda uchrashi mumkin bo‘lgan dominantseptakkord aralash xorda tonikaga o‘tishi sizga ma’lum. 2 ovozli xorda esa shu akkord ichidagi kengaytirilgan kvartaning tonikasi sekstaga o‘tishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

4 ovozda:




2 ovozda:




yoki:




Aralash 4 ovozli xor asarini 2 ovozli ayollar xoriga moslashtirish:



Aralash 4 ovozli xor asarini 2 ovozli erkaklar xoriga moslashtirish:




# Namanganning olmasi

(O'zbek xalq qo'shig'i)

Ye.Nechayev qayta islagan

**Allegro non troppo**




# Namanganning olmasi

(O'zbek xalq qo'shig'i)

Ye.Nechayev qayta ishlagan

**Allegro non troppo**



T.To'la she`ri

## Qiyiq

Ye.Nechayev musiqasi




T.To'la she`ri

## Qiyiq

Ye.Nechayev musiqasi




### Bir turdagi xor asarini boshqa turdagi asariga xor moslashtirish

1. 4 ovozli ayollar xor asarini 4 ovozli erkaklar xor asariga moslashtirish.
2. 4 ovozli erkaklar xor asarini 4 ovozli ayollar xor asariga moslashtirish.

Bunda ham sxemadan foydalanish maqsadga muvofiqdir.




va buning aksi




Bir qarashda oddiy tuyulgan bu sxemadan foydalanilganda talabalardan yozuv savodi qoidasi talab qilinadi. Moslashtirish jarayonida ayollar xori partiturasi bilan erkaklar xori partiturasi orasidagi oktavani hamda kalitlar o‘zgaruvini yodda tuting.

# Nazlana

(Ozarbayjon xalq qo'shig'i)

R.Shafaq xor uchun moslashtirgan




# Nazlana

(Ozarbayjon xalq qo'shig'i)

R.Shafaq xor uchun moslashtirgan




# YOSHLIGIM

O'zbek xalq qo'shig'i

B.Umedjonov qayta ishlagan




# YOSHLIGIM

O'zbek xalq qo'shig'i



### Bir turdagi 4 ovozli xor asarini bir turdagi 2 ovozli xorga moslashtirish

Ushbu moslashtirish usuli o‘tilgan mavzulardagi moslashtirish usuli katta farq qilmaydi. (5-6-mavzularga qarang). Bu yerda ham yuqori ovoz chiziғi saqlanib qolinadi. Qolgan 3 ovoz ichidan garmoniyani aniqroq aks etuvchi ovoz partiyasi tuziladi va natijada 2 ovozli xor asari hosil bo‘ladi.

Bu moslashtirish 4 xil ko‘rinishga ega:

1. 4 ovozli ayollar xor asarini soprano va alt ovozli asariga xor moslashtirish.
2. 4 ovozli ayollar xor asarini tenor va bas ovozli asariga xor moslashtirish.
3. 4 ovozli erkaklar xor asarini soprano va alt ovozli asariga xor moslashtirish.
4. 4 ovozli erkaklar xor asarini tenor va bas ovozli asariga xor moslashtirish.

Taxminiy sxemani e’tiboringizga havola qilamiz:




## Sen chamanni guli bo'lsang

(O'zbek xalq qo'shig'i)

B.Umedjonov qayta ishlagan



# Sen chamanni guli bo'lsang

(O'zbek xalq qo'shig'i)




# Qizlarxon

(O'zbek xalq qo'shig'i)

B.Umedjonov musiqasi




# Qizlarxon

(O'zbek xalq qo'shig'i)

B.Umedjonov musiqasi




**Bir turdagi 4 ovozli xor asarini bir turdagi 3 ovozli xorga asariga moslashtirish**

Bu moslashtirish ham 4 xil ko‘rinishga ega va taxminiy sxemalardan foydalanish mumkin: Diqqatingizni yana o‘tilgan 5 mavzuga qarating.

1. 4 ovozli ayollar xor asarini soprano I, soprano II, alt ovozli xorga moslashtirish.
2. 4 ovozli ayollar xor asarini soprano, alt I, alt II ovozli asariga xor moslashtirish.
3. 4 ovozli erkaklar xor asarini tenor I, tenor II, bas ovozli asariga xor moslashtirish.
4. 4 ovozli erkaklar xor asarini tenor, bas I, bas II ovozli asariga xor moslashtirish.






# Shamol eshik ochadi

B.Umedjonov qayta ishlagan




# Shamol eshik ochadi




A.Navoiy so'zi

# Qabog'ing yaxshi

B.Lutfullayev musiqasi




A.Navoiy so'zi

# Qabog'ing yaxshi

B.Lutfullayev musiqasi



## Aralash 3 ovozli xor asarini bir turdagi 3 ovozli xor asariga moslashtirish

Aralash 3 ovozli xor tarkibini soprano, tenor – bas unison (erkaklar) yoki soprano – alt unison (ayollar), tenor, bas partiyalari tashkil qiladi.

Moslashtirishning 2 xil ko‘rinishi mavjud:

1. Soprano, alt va erkaklar ovozini soprano I, soprano II, alt ovozli asariga xor moslashtirish.




2. Soprano, alt va erkaklar ovozini soprano, alt I, alt II ovozli xor asariga moslashtirish.




# O'zbekiston taronalari

N.Sharafiyeva qayta ishlagan




# O'zbekiston taronalari



## O'zbekiston taronalari

N.Sharafiyeva qayta ishlagan




## O'zbekiston taronalari




### Aralash 4 ovozli xor asarini aralash 3 ovozli asariga xor moslashtirish

Bu moslashtirishning 2 xili mavjud:

1. 4 ovozli aralash xor asarini soprano, alt, tenor – bas unison ovozli asariga xor moslashtirish.

Ushbu moslashtirishda soprano va alt partiyalari saqlanib qolinadi, erkaklar uchun tenor yoki bas partiyalaridan biri (qulayroғi) beriladi.




2. 4 ovozli aralash xor asarini soprano – alt unison, tenor, bas ovozli asarlariga xor moslashtirish.

Bu holatda tenor va bas partiyalari saqlanib qolinadi, alt partiyasi tushirib qoldiriladi, ayollar (S.A.) soprano partiyasini unisonda ijro etadi.



# Qilpillama

(O'zbek xalq qo'shig'i)

B.Umedjonov qayta ishlagan




# Qilpillama

(O'zbek xalq qo'shig'i)




# Namanganning olmasi

(O'zbek xalq qo'shig'i)

Ye.Nechayev qayta islagan



# Namanganning olmasi

(O'zbek xalq qo'shig'i)

**Allegro non troppo**




## Bir turdagi 2 ovozli xor asarini aralash asariga xor moslashtirish

2 ovozli xor partiturasi ayollar uchun – soprano, alt, erkaklar uchun – tenor, bas.

Ushbu moslashtirishni oktavali unison yo‘li bilan amalga oshirish mumkin, ya’ni soprano tenorni, alt basni (dubl) shakillantiriladi.




# Farg'ona yor-yori

(O'zbek xalq qo'shig'i)

J.Shukurov moslashtirgan

**Moderato**




# Farg'ona yor-yori

(O'zbek xalq qo'shig'i)

**Moderato**



Bu holda original tonallik saqlanib qolindi. Ba’zida bir turdagi xor ikki yuqori ovozlardan tashkil topgan bo‘ladi. Masalan, S I, S II yoki T I, T II. Ma’lum-ki, bu partiyalarni yuqori registrda kuylaydilar. Aralash xor uchun asarni moslashtirganda yuqori ovozlar registri pastki ovozlar uchun qulaylik yaratadi.




yoki




Bunday holatlarda qulay tonallikka (katta tertsiyadan oshmagan tarzda) transport qilish kerak bo‘ladi.

Misol: *(transport bilan).*

## Bir turdagi 3 ovozli xor asarini aralash asariga xor moslashtirish

Bir turdagi 3 ovozli xor partiturasi 2 xil bo‘ladi:

1. Ayollar uchun – C I, C II, A yoki C, AI, A II.
2. Erkaklar uchun – T I, T II, B yoki T, B I, B II.

Bir turdagi 3 ovozli xor asarini aralash xor uchun moslashtirish 3 yo‘l bilan amalga oshiriladi.

1. aralash xor partiturasida bir turdagi xor asaridagi 3 ovozning 1 tasi ikkilanadi.
2. aralash xor partiturasida bir turdagi xor asaridagi 3 ovozning 2 tasi ikkilanadi.
3. aralash xor partiturasida bir turdagi xor asaridagi 3 ovozning har bir oktavada ikkilanadi.

1-yo‘l – aralash xorning kichik tarkibini hosil qiladi va quyidagi sxema ko‘rinishida bo‘ladi.

Bir turdagi ayollar xoridan aralash xorga moslashtirish:




yoki




Bir turdagi erkaklar xoridan aralash xorga moslashtirish:




yoki




2-yo‘l – aralash xorning katta tarkibini tashkil qiladi va quyidagi sxema ko‘rinishida bo‘ladi.

Bir turdagi ayollar xoridan aralash xor asariga moslashtirish:




yoki




Bir turdagi erkaklar xoridan aralash xorga moslashtirish:




yoki




Ayrim holatlarda alt partiyasi uchun registr noqulayligi tuғiladi va transport qilishga to‘ғri keladi.

3-yo‘l – aralash xorning eng katta tarkibini hosil qiladi.

Bir turdagi ayollar xoridan aralash xorga moslashtirish:




yoki




Bir turdagi erkaklar xoridan aralash xorga moslashtirish:




yoki




O‘zbek xor san’atida 1-yo‘ldagi moslashtirish eng qulayi hisoblanadi.

# Qizlarxon

(O'zbek xalq qo'shig'i)

B.Umedjonov moslashtirgan




# Qizlarxon

(O'zbek xalq qo'shig'i)




**Bir turdagi 4 ovozli xor asarini aralash asariga xor moslashtirish**

Ushbu moslashtirishning asosiy yo‘li bir turdagi xor ovoz partiyalari joylashuvining o‘zgarishini kelitirib chiqaradi. Amaliyotda bu yo‘l ko‘proq qo‘llaniladi. Bunga sabab ovoz partiyalari diapozon chegarasidan chiqib ketmaydi, ya’ni qulay registrda qoladi. Natijada tonallik ham saqlab qolinadi.

Bir turdagi ayollar xoridan aralash asariga xor moslashtirish:



Bir turdagi erkaklar xoridan aralash asariga xor moslashtirish:




Natijada ovozlarning o‘zgacha joylashgan partiturasi hosil bo‘ladi. Bir turdagi ovoz partiyalari tor joylashuvda yozilgan bo‘lsa, yuqoridagi moslashtirish yo‘li birmuncha qulaydir.

## Hay, yor-yor, yorammo

(O'zbek xalq qo'shig'i)

B.Umedjonov qayta ishlagan




## Hay, yor-yor, yorammo

(O'zbek xalq qo'shig'i)



## 1 ovozli xalq qo'shiqlarini aralash uslubda moslashtirish

1 ovozli xalq qo'shiqlarini

1) bir turdagi 2 ovozli asariga xor (soprano, alt yoki tenor, bas);

2) bir turdagi 3 ovozli asariga xor (soprano I, soprano II, alt yoki soprano, alt I, alt II),

(tenor I, tenor II, bas yoki tenor, bas I, bas II);

3) aralash asariga xor moslashtirish mumkin.

Aralash uslubda moslashtirish uchun talaba shu fandan olgan bor bilim va musiqiy savodini, fantaziyasini ishga solishi kerak. Folkorda uchraydigan aytishuvlar, xayqiriqlar, qarsaklardan, musiqiy cholғularni immitatsiya (taqlid) qilish mumkin bo'lgan so'zlardan foydalanish mumkin.

Masalan; Xo!, Xay, yor-yor, voxay, bali-bali, bak-bak-bum-bak, zum-zum, dun-dun, ra-na-na-na, nay-nay-nay, taralla-la-la va hokaza.

Bularga misol qilib B.Umidjonovning bir nechta asarlarini, jumladan "Oromijon", "Xay, yor-yor", "Xo, yallo-yallo, qizgina", M.Burxonovning "CHashmi siyoh", "Go'zal qizga", YE.Nechayevning "Qiyiq", "Namanganning olmasi", "Ayraliq", N.SHarafiyevaning "O'zbekiston taronalari", "Hazil", "Ey, mehribonim" va hokazalarni keltirish mumkin.

Misol:

## Fortepiano jo'rligidagi 1 ovozli vokal asarini bir turdagi 2 ovozli xor asariga moslashtirish

Bunday moslashtirishni 3 ta variantda ko'rib chiqamiz:

1. Bolalar xori uchun.
2. Ayollar xori uchun.
3. Erkaklar xori uchun.

Moslashtirish texnikasi uchala xor tarkibi uchun ham bir xildir. Faqatgina xor diapozonlarida farq qiladi.

1. Bolalar xori uchun moslashtirishda ularning yoshi hisobga olinishi kerak. Kichik yoshdagi (5-8) bolalarning ovoz pardalari chiniqmagan hamda diapozoni chegaralangan bo'lishini esda tutib, o'rta registrdan foydalanish lozim. Registrning chekka tovushlaridan ehtiyotlik bilan foydalanish kerak (birinchi oktava Re dan ikkinchi oktava Do gacha). O'rta yoshdagi (9-13) bolalarning ovozlari biroz kuchayadi va tembr paydo bo'la boshlaydi. Umumiy diapozoni kichik oktava Lya, Si dan ikkinchi oktava Fa, Sol gacha. Bu moslashtirishda nafaqat o'rta registr, balki chekka registrdan ham bemalol foydalanish imkonini beradi.

Bunday moslashtirishning vazifasi akkompaniment asosida ikkinchi ovoz tuzishdir. Tuzilgan ikkinchi ovoz ba'zi talablarga javob bermoғi lozim:

a) bu ovoz sodda va tabiiy bo'lishi;

b) kuychan va iloji boricha ifodaviy bo'lishi;

v) uning melodik yo'li fortepiano jo'rligidagi garmoniyaga mos bo'lishi;

g) yuqori (asosiy) ovoz bilan uyғunlashganda sifatli xor jarangini bermoғi lozim.

Misol: *(bolalar xor asaridan)*

## Kashta

K.Turdiyeva she`ri

A.Ergashev musiqasi




## Kashta

K.Turdiyeva she`ri

A.Ergashev musiqasi




2. Ayollar xori uchun moslashtirishning asosida ham fortepianoga berilgan musiqiy mato yotadi. Asosiy melodiya sopranoda qoladi, alt uchun uning diapozonidan chiqmagan holda fortepiano jo‘rligidagi garmoniyadan foydalanib melodiya to‘qiladi (bastalanadi).

Misol:

## Navbahor

Shoxismoil so'zi

R.Tursunov musiqasi



# Navbahor

Shoxismoil so'zi

R.Tursunov musiqasi




# Bahor qo'shig'i

T.To'la she`ri

M.Burxonov musiqasi




# Bahor qo'shig'i

T.To'la she`ri

M.Burxonov musiqasi

S.Muzafarova xor uchun moslashtirgan




3. Erkaklar xori uchun moslashtirish yuqorida berilgan yo‘lga (soprano va alt uchun) o‘xshab ketadi, asosiy melodiya tenorga beriladi. Bas esa fortepiano musiqiy matosining eng pastki (bas) yo‘lidan olinadi. Tabiiy-ki, bu holda oktavalar katta rol o‘ynaydi, ya’ni xor partiyalari ularga qulay bo‘lgan registrda yozilishi lozim.

# Umid

E.Solixov musiqasi




# Umid

E.Solixov musiqasi
S.Muzafarova xor uchun moslashtirgan



## Fortepiano jo‘rligidagi 1 ovozli vokal asarini bir turdagi 3 ovozli asariga xor moslashtirish

Bunday moslashtirishda berilgan vokal melodiyasiga akkompaniment asosida 2 ta boshqa ovoz bastalanishi kerak bo‘ladi (o‘rta va pastki). Xuddi 1 ovozli vokal asarini 2 ovozli asariga xor moslashtirganimiz kabi (15-mavzu), bu yerda ham yuqoridagi talablar asosida ish tutmoqimiz darkor. Bastalangan ovozlar o‘zining rivojida tabiiy va mantiqli bo‘lishi, ularning uyғunligi, fortepiano garmoniyasiga batamom mos bo‘lishi, akkordlar joylashuvi sifatli, bir maromli ansamblda bo‘lishi lozim.

K.Turdiyeva so'zi

### Sport

X.Hasanov musiqasi




K.Turdiyeva so'zi

### Sport

X.Hasanov musiqasi



# Hur respublikam

X.Qayumov so'zi

A.Mansurov musiqasi





# Hur respublikam

X.Qayumov so'zi

A.Mansurov musiqasi




# Toshkent

I.Jiyanov tarjimasi

D.Tuxmanov musiqasi

**Allegretto**




# Toshkent

I.Jiyanov tarjimasi

D.Tuxmanov musiqasi
S.Muzafarova xor uchun moslashtirgan

**Allegretto**



## Fortepiano jo'rligidagi 1 ovozli vokal asarini 3 ovozli to'liq bo'lmagan xor asariga moslashtirish

Amaliyotda 3 ovozli to'liq bo'lmagan aralash xorning bir ko'rinishi ko'zga tashlanadi (soprano, alt, erkaklar). Bunday holat o'smirlar xorida va havaskorlar xorida kuzatiladi. CHunki o'smirlarning ovozlari tenor va bas tembrlariga hali aniq ajralmagan, havaskorlar xorida esa erkak ovozlar tenor va bas partiyalariga ajralgan bo'lsa-da, son jihatidan kam bo'lganliklari sababli unison tavsiya qilinadi. SHu sabablarga ko'ra erkaklar bir ovozda kuylashlari lozim bo'ladi.

Bunday moslashtirishni amalga oshirayotganda quyidagilarni hisobga olish kerak. Erkaklar ovozlarining unisonda kuylanishi ularning diapozonini birmuncha qisqarishiga olib keladi. CHunki tenorlar uchun bas partiyasining pastki registri, baslar uchun esa tenor partiyasining yuqori registri noqulaylik qiladi. Natijada asar ikki partiya uchun ham qulay bo'lgan diapozon oralиғida moslashtirilishi kerak bo'ladi (kichik oktava Do dan birinchi oktava Re gacha).




Ba'zida ikki pastki ovozlar orasida katta (interval) bo'linish hosil bo'lishi mumkin. Bu holat sifatli xor jarangiga salbiy ta'sir qiladi.




Bunday bo'linishlardan qochish uchun akkord xilini o'zlashtirish, ya'ni uning aylanmasidan foydalanish lozim. Bu xor partiturasida ovozlar o'rtasidagi intervallar qulayligini hamda to'liq xor jarangi hosil bo'lishini ta'minlaydi.



# Majnuntol

T.To'la she`ri

F.Zokirov musiqasi




# Majnuntol

T.To'la she`ri

B.Zokirov musiqasi
S.Muzafarova xor uchun qayta ishlagan




**Fortepiano jo‘rligidagi 1 ovozli vokal asarini aralash xorga asariga moslashtirish**

Ushbu moslashtirishda, albatta, olshgan bilimlar, yuqorida o‘tilgan mavzulardan to‘plangan tajribalar asos bo‘ladi (15, 16, 17-mavzular). Bunday moslashtirishning negizida ham, yuqorida aytib o‘tgilganidek, fortepiano jo‘rligidagi musiqiy mato ifodalanadi.

Asosiy melodiya (bir ovozli vokal yo‘li) asar ma’nosiga qarab soprano yoki tenorga beriladi, bas esa o‘zining diapozoni chegarasida akkopanimentning pastki yo‘lidan olinadi. O‘rtadagi partiyalar ham garmoniyadan (uyғunlik), berilgan musiqiy matodan yaratiladi (bastalanadi).

# Qaydasan

T.To'la she`ri

I.Akbarov musiqasi



# Qaydasan

T.To'la she`ri

I.Akbarov musiqasi
S.Muzafarova xor uchun moslashtirgan




# DO'STLIK

Murtazo she`ri

Avaz Mansurov musiqasi



## DO'STLIK

Murtazo she`ri

Avaz Mansurov musiqasi
S.Muzafarova xor uchun moslashtirgan




### 5. Test savollari

**1. “Aranjirovka” fani qaysi mutaxassislik predmetlari bilan o‘zaro boғliq?**

a) xor sinfi, solfedjio, garmoniya
b) polifoniya musiqa nazariyasi, musiqa tarixi
s) vokal ansambli, xor sinfi, xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti
d) mutaxassislikka kirish, maqom asoslari

**2. “Aranjirovka” fanining asosiy maqsadi nimadan iborat?**

a) vokal-xor jamoasiga bilimli, malakali rahbar tayyorlash
b) tarbiyachi-pedagog tayyorlash
s) yoshlarni qo‘shiq aytish, cholғu chalish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash
d) to‘ғri javob yo‘q

**3. 12 ta va undan ortiq kishidan tashkil topgan kuylovchi jamoa qanday ataladi?**

a) kvartet
b) ansambl
s) xor
d) kvintet

**4. Xormeyster – qaysi jamoa rahbari ?**

a) orkestr jamoasi

b) xor jamoasi
s) raqs jamoasi
d) xalq ashula va raqs ansambli

**5. Aralash xor qaysi ovozlardan tashkil topadi?**
a) alt, bas
b) tenor, soprano
s) soprano, bas
d) soprano, alt, tenor, bas

**6. 2, 3 va undan ortiq ovozli asar partiyalarini bir xil notalarda kuylanishi:**
a) unison deb ataladi
b) ko‘p ovozli deb ataladi
s) polifoniya deb ataladi
d) garmoniya deb ataladi

**7. Vokal-xor jamoasidagi ayollar ovozi nomlarini ko‘rsating?**
a) altino, tenor
b) soprano, alt
s) bariton, bas
d) kontralto

**8. Vokal-xor jamoasidagi erkaklar ovozi nomlarini ko‘rsating?**
a) soprano, alt
b) bas, bariton, tenor
s) alt, soprano
d) kontralto

**9. Rahbar vokal-xor jamoasiga repertuar tanlashda nimalarni nazarda tutmoғi lozim?**
a) band va naqarotdan iborat ekanligini
b) qo‘shiqchilik an’analari, badiiy ijro yo‘llari vokal-xor jamoasiga mosligini
s) asarlarning mavzusini rang-barangligi, oddiydan murakkabga o‘tib borishligi, ғoyaviy va badiiy yuksakligi va kontsertlarda ijro etilishini
d) b va s javoblar to‘ғri

**10. Qo‘shiq aytish xonandalardan nimalarni talab etadi?**
a) yaxshi talaffuz, to‘ғri nafas
b) ovozni zo‘riqtirmaslik, mayin va tekis kuylash
s) ravon va to‘liq ovozda kuylash
d) hamma javoblar to‘ғri

**11. Qanday asarlar vokal ansamblida ijro etiladi?**
a) cholғu

b) vokal, estrada
s) ariya
d) oratoriya

**12. Vokal ansambli necha kishidan tashkil topadi?**
a) 12, 13, 14, …
b) 2, 3, 4, …
s) 10, 11, 12, …
d) 1

**13. Vokal triosi necha kishidan iborat ?**
a) 2 ta
b) 10 ta
s) 3 ta
d) 8 ta

**14. Vokal dueti necha kishidan iborat?**
a) 7 ta
b) 5 ta
s) 2 ta
d) 3 ta

**15. Vokal kvinteti necha kishidan iborat?**
a) 2ta
b) 6 ta
s) 5 ta
d) 3 ta

**16. Vokal kvarteti necha kishidan iborat?**
a) 4 ta
b) 2 ta
s) 3 ta
d) 6 ta

**17. Ansabl deganda nimani tushunasiz?**
a) uchtovushlik va akkordlarning birgalikda to‘ғri kuylanishi
b) dirijor bilan birga kuylash
s) jamoaning birgalikda, uyғunlikda kuylashi
d) dinamik nyuanslarni birgalikda kuylanishi

**18. Xor jamoasida ishlatiladigan davomli nafas turini aniqlang?**
a) qisqa va chuqur nafas
b) zanjirsimon nafas
s) shoshilmasdan olingan nafas
d) burundan o‘pkaga olingan nafas

**19. Erkaklarning qanday yuqori ovozini bilasiz?**
a) bariton
b) tenor
s) bas
d) soprano

**20. Erkaklarning eng past ovozini aniqlang?**
a) kontralto
b) alt
s) soprano
d) bas

**21. Qanday ovoz ayollar past ovozi deyiladi?**
a) bas
b) alt
s) soprano
d) tenor

**22. Ayollarning yuqori ovozini ko‘rsating?**
a) kontralto
b) tenor
s) bas
d) soprano

**23. Soprano partiyasining umumiy diapazoni:**
a) si – kichik oktava, do – 1 oktava, sol – 2 oktava
b) lya, si – kichik oktava, fa – 2 oktava
s) mi – kichik oktava, mi – 2 oktava
d) do, re – 1 oktava, si – 2 oktava, do – 3 oktava

**24. Alt partiyasining umumiy diapazoni:**
a) sol – kichik oktava, sol – 2 oktava
b) mi, fa – kichik oktava, re, mi – 2 oktava
s) lya – kichik oktava, lya – 2 oktava
d) do – 1 oktava, sol – 2 oktava

**25. Tenor partiyasining umumiy diapazoni:**
a) do, re – kichik oktava, si, do – 2 oktava
b) mi – kichik oktava, sol – 2 oktava

s) fa – kichik oktava, lya – 2 oktava
d) sol – kichik oktava, si – 2 oktava

**26. Bas partiyasining umumiy diapazoni:**
a) sol – katta oktava, lya – 1 oktava
b) fa – katta oktava, sol – 1 oktava
s) lya – 1 oktava, sol – 1 oktava
d) mi, fa – katta oktava, re, mi – 1 oktava

**27. Vokal-xorining umumiy diapazoni:**
a) re – 1 oktava, sol – 2 oktava
b) mi, fa – katta oktava, si – 2 oktava, do – 3 oktava
s) mi – 1 oktava, mi – 2 oktava
d) do – 1 oktava, fa – 2 oktava

**28. Vokal-xor jamoasining eng kam soni nechta bo‘lishi kerak?**
a) 15
b) 10
s) 6
d) 12

**29. Vokal-xor jamoasida talaffuz (diksiya)ning ahamiyati nimada?**
a) qo‘shiqning ligato uslubida kuylanishi
b) so‘zlarning aniq va burro talaffuz qilinishi
s) so‘zlarning noaniq talaffuz qilinishi
d) so‘zlarning uzib kuylanishi

**30. Qaysi uslub ko‘p ovozlikka o‘tishda qo‘llaniladi?**
a) kanon uslubi
b) garmonik uslub
s) polifonik uslub
d) uchtovushliklarni kuylash uslubi

**31. “Doirani chaling” qo‘shiғida o‘zbek xalqining qaysi marosimiga xosligi kuylangan?**
a) gul sayli marosimiga
b) Navro‘z bayramiga
s) hosilni yiғib-terib olish marosimiga
d) to‘y marosimiga

**32. Sochga taqilgan ko‘zmunchoq nimaning timsolini belgilaydi?**
a) qizlarning erki o‘z qo‘lida emasligini anglatadi
b) ota-onasining rayiga qizning qarshi bormasligini bildiradi
s) qizning go‘zalligidan darak beradi
d) ko‘ngil qo‘yganiga yetishishini bildiradi

**33. Bolalar va ayollar xori uchun asarlar qaysi musiqiy kalitda yoziladi?**

a) bas kalitida
b) skripka kalitida
s) alt kaliti kalitida
d) tenor kalitida

**34. 2 qatorli aralash xor asarlarida erkaklar partiyasi qaysi musiqiy kalitda yoziladi?**

a) bas kalitida
b) skripka kalitida
s) alt kalitida
d) tenor kalitida

**35. Aralash xor asarlari qaysi musiqiy kalitlarda yoziladi?**

a) skripka va bas kalitida
b) skripka kalitida
s) skripka va tenor kalitida
d) alt va tenor kalitida

**36. Metso piano, metso forte, krishendo, diminuendo – asarda nima maqsadda qo‘llaniladi?**

a) ritmni his qilish uchun
b) tovush balandligini pastga tushirish va yuqoriga ko‘tarish uchun
s) to‘ғri va aniq nafas olish uchun
d) tovush hosil qilish uchun

## 6. Nazorat uchun savollar

### Amaliy mashg'ulotlar uchun ishlanmalar

Aranjirovka fani xor jamoalari tashkilotchisi tayyorlashda mutaxassislik fanlaridan biridir. Ushbu fanni o'qitish jarayonida xor jamoalari ijrochiligi tarixi, tor asarlari va o'zbek milliy merosidan o'rin olgan asarlar bilan bir qatorda bastakor liamda kompozitorlar yaratgan asarlar, qo'shiq aytish jarayonida gavdani tik holda utish, hatto o'tirib ijro qilgandagi holatlar, to'g'ri nafas olish, uni to'g'ri sarflash ^o'1-yo'riqlari, ijrodagi nafas olish bilan jismoniy nafas olishning farqi ham chuqur D'rgatiladi.

Qo'shiq aytish davomida artikulyatsiya apparatining ahamiyat nechogii katta jkanligi ma'lum. Shu sababli uning erkin ishlatilishi, unli va undosh tovushlarning ;o'g'ri talaffuz etilishi muhim ahdmiyatga ega.

Ijroning chiroyli va eshituvchiga yetib borishida Yuqorida aytib o'tilganlar bilan Dirga asarning mazmun mohiyatini chuqur anglab yetish ham muhimdir. Shunga co'ra, har bir tanlab olingan asarni mazmuni chuqur tahlil etiladi.

Nafas olish o'rinlarini (frazalarini) aniqlash ham bulardan mustasno emas. SHunday ekan to'g'ri nafasdan foydalanish va o'z o'rnida nafas olish, ayniqsa so'z )o'g'inlarini bo'lmagan holda nafas olish maqsadga muvofiq.

# 7. Tarqatma materiallar

## Yor-yor 1




## YOr – yor

Hay-hay o‘lan (o), jon o‘lan,
Qizlar kelar yor (a), qizlar kelar (o) yor-yor.
Kelinchakning (o) ko‘zlari,
YOshga to‘lar yor (a), yoshga to‘lar (o) yor-yor.

Hay-hay o‘lan (o), jon o‘lan,
Muz panjara (ya) yor-yor.
Har jafoga ko‘nadi (yo),
Qiz bechora (ya) yor-yor.

# Yor-yor II


Hayhay o' lan, jon o' - la no, ke lin kel di,
yor - yo ra ke lin kel di. Qo' shiq bi lan to'y bi - la no (ha)
ke lin kel di, yor - yo - ra ke lin kel di.
Hay-hay o' lan jon o'- la no jo- no na dur, yor - yo- ra jo- no -
ha dur. O'z teng - la ri i- chi - da- yo ya go - na dur, yor -
yo- ra ya go na - dur. Hay- hay o' lan
jon o'- la no gul qay da bor, yor - yo- ra gul qay - da bor. Bir yax -
shi ga bir yo - mo- na Har joy - da bor, yor - yo- ra har joy
da - bor. yor - yo- ra har joy da - bor.

# YOr – yor

Hay-hay o‘lan, jon o‘lan (o), kelin keldi,
YOr-yora, kelin keldi.
Qo‘shiq bilan to‘y bilan (o), ha, kelin keldi,
YOr-yora, kelin keldi.

Hay-hay o‘lan, jon o‘lan (o), janonadur,
YOr-yora, janonadur.
O‘z tenglari ichida (yo), ha, yagonadur,
YOr-yora, yagonadur.

Hay-hay o‘lan, jon o‘lan (o), gul qayda bor,
YOr-yora, gul qayda bor.
Bir yaxshiga bir yomon (a), har joyda bor,
YOr-yora, har joyda bor.

## Yor-yor III



## YOr – yor

Hay-hay o‘lan, jon o‘lan, kelin keldi, yor-yor,
YOr-yora, kelin keldi, yor-yor.
Qo‘shiq bilan to‘y bilan, sepi keldi, yor-yor,
YOr-yora, sepi keldi, yor-yor.

Hay-hay o‘lan, jon o‘lan, janonadur, yor-yor,
YOr-yora, janonadur, yor-yor.
O‘z tenglari ichida, yagonadur, yor-yor,
YOr-yora, yagonadur, yor-yor.

Hay-hay o‘lan, jon o‘lan, to‘yga yetkaz, yor-yor,
YOr-yora, to‘yga yetkaz, yor-yor.
YUrakdagi ғuborimni, o‘zing ketkaz, yor-yor,
YOr-yora, o‘zing ketkaz, yor-yor.

# Алла

Слова Аспазии
Русский текст О.Петерсон

Музыка Р.Паулса



# Bu olam go'zal

Kavsar so'zi

Anvar Ergashev musiqasi




14
Voice
Biz-lar bi-lan
Biz qol-dir-gan yo-rug'
iz-lar bi-lan
Pno.
17
Voice
Ha-yot fa-ro-von
O-lam cha-ro-g'on
Yo-rug' ha-yo-ti-miz-dan ni-shon
Pno.
20
Voice
Pno.
23
1.
2.
Voice
Pno.

# MAJNUNTOL

T.To'la she`ri

F.Zokirov musiqasi
S.Muzafarova xor uchun moslashtirgan









S.
chiq-qan e - mish bu - loq bo' - yi - ga.
o - ti-rar- mish yo - yib so - chi - ni.
O' - zin ko' - rib bu loq - da bir kun
O' - zi bo' - lib o' - zi - ga maf - tun
A.
chiq-qan e - mish bu - loq bo' - yi - ga.
o' - ti-rar- mish yo - yib so - chi - ni.
O' - zin ko' - rib bu loq - da bir kun
O' - zi bo' - lib o' - zi - ga maf - tun
T.
chiq-qan e - mish bu-loq bo' - yi - ga.
o' - ti-rar- mish yo - yib so - chi - ni.
O'-zin ko'-rib bu loq - da bir kun
O' - zi bo' - lib o' - zi - ga maf - tun
B.
chiq-qan e - mish bu - loq bo' - yi - ga.
o' - ti-rar- mish yo - yib so - chi - ni.
O' - zin ko' - rib bu loq - da bir kun
O' - zi bo' - lib o' - zi - ga maf - tun


S.
Ke - tol - ma - yin qop - ti u - yi - ga,
O - lol - mas - mish suv - dan bo - shi - ni,
ke - tol - ma - yin qop - ti u - yi - ga.
o - lol - mas - mish suv - dan bo - shi - ni.
A.
Ke - tol - ma - yin qop - ti u - yi - ga,
O - lol - mas - mish suv - dan bo - shi - ni,
ke - tol ma - yin qop - ti u - yi - ga.
o - lol - mas - mish suv - dan bo - shi - ni.
T.
Ke - tol - ma - yin qop - ti u - yi - ga,
O - lol - mas - mish suv - dan bo - shi - ni,
ke - tol - ma - yin qop - ti u - yi - ga.
o - lol - mas - mish suv - dan bo - shi - ni.
B.
Ke - tol - ma - yin qop - ti u - yi - ga,
O - lol - mas - mish suv - dan bo - shi - ni,
ke - tol - ma - yin qop - ti u - yi - ga.
o - lol - mas - mish suv - dan bo - shi - ni.


S.
Maj - nun - tol, maj - nun - tol.
A.
Maj - nun - tol, maj - nun - tol.
T.
Maj - nun - tol, maj - nun - tol.
B.
Maj - nun - tol, maj - nun - tol.


S.
Maj - nun - tol, maj - nun - tol.
A.
Maj - nun - tol, maj - nun - tol.
T.
Maj - nun - tol, maj - nun - tol.
B.
Maj - nun - tol, maj - nun - tol.

# O'ZBEKISTON

Muhiddin Omon she`ri

D.Omonullayeva musiqasi
Saodat Muzaffarova xor uchun moslashtirgan




27
S.
A.
T.
B.
san O'z -be -kis - ton, O'z -be -kis - ton. Man-gu so'l -mas ba-ho - rim
san O'z -be -kis - ton, O'z -be -kis - ton. Man-gu so'l -mas ba-ho - rim


31
S.
A.
T.
B.
san, O'z - be - kis - ton, O'z - be - kis -
san, O'z - be - kis - ton, O'z - be - kis -




## 8. Glossariy

1. Stakato - ijro ko‘rsatilgan bo‘ғinlarni uzub-uzub ijro etish
2. Avj (arab.) - asarning yuqorigi cho‘qqisi, balandlik
3. Aktsent (lot. accentus) - urғu
4. Alteratsiya (lot. alteratio) - tovush balandligini yarim yoki butun tonga o‘zgartirish
5. Ataka (ital.attaccare) - hujum, boғlanmoq, qo‘shilmoq
6. Bariton (yunon. barytonos) – erkaklarning eng pastki ovozi
7. Bas (ital. basso) – erkaklarning pastki ovozi
8. Vokaliz (frants. vokalize lot. vokalis) - unli tovushlar orqali to‘ғri talaffuzga erishish
9. Soz - yakka va ansambl ijrosida sof, tiniq ovoz bilan kuylash.
10. Kuy - asarnung musiqiy ohangi, naғma.
11. Ansambl (frants.ensemble) - ikki va undan ortiq ijrochilarning birgalikda ijrosining uyғunligi, jo‘rovozlik.
12. Vokalizatsiya - so‘zsiz kuylash
13. Gamma (yunon “γ”) - oktava oraliғidagi tovushqator
14. Detonatsiya (frants. de’tonner) - noto‘ғri kuylamoq
15. Diktsiya (lot. dictio) – unli va undosh tovushlarda nutq talaffuzi
16. Distonatsiya (yunon. Dis tonos) - ton – kuchlanish, urғu
17. Interval (lot. intervallum) – notalar oraliq masofasini bildiriadi

18. Intonatsiya (lot. intono) - qattiq talaffuz etaman
19. Lad (slav.) - uyғunlik, tartiblik
20. Mutatsiya (lot. mutatio) - o‘ғil va qiz bolalarda ovoz mushaklariningo‘zgarishi
21. Nyuans (frants. nuance) – asar ijrosida ishlatiladigan nola, qochirimlar, tus
22. Tonallik - lad tovushlarining muayyan balandligi
23. Transpozitsiya (lot. transposition) – bir tonalikdan boshqa tonalikka ko‘chirish
24. Unison (ital. unisono, lot. unis) - bir, sonus – tovush – bir xil balandlikdagi ikki yoki bir necha ovozlarda tovushlarning bir xil yangrashi
25. Fermata (ital. fermata) – belgilangan ma’lum akkord yoki pauzani cho‘zish belgisi
26. Partirura (ital. partitura lot. partio) – erkak va ayollar ovoz pariyalariga bo‘laman, tasdiqlayman
27. Pauza (yunon. pausis) – ijro davomida vaqtinchalik to‘xtatish, tinish, dam olish
28. Repetitsiya (lot. repetitio) - asarning tayyor bo‘lish holatigacha bo‘lgan takroriy ijro
29. Ritm (yunon. rhytmos) – asarni moslik, bir tekis oqimdagi ijrosi
30. Soprano (ital. sopra) - ayollarning yuqori ovoz
31. Tembr (frants. timbre) - to‘ғri hosil etilgan tovushning chiroyi, tovush tusi
32. Temp (lot. tempus) – ijro etiladigan asarning musiqiy sur’ati
33. Tenor (lot. tenore) - erkaklarning baland ovozi
34. Tessitura (ital. tessitura) - xonanda ovozining diapozoniga nisbatan kuy tovushlarni balandlik holati

| | | | |
|---|---|---|---|
| Allegro vivace | allegro vivache | jivo | tez, jonli |
| Presto | presto | bistro | tez |
| Prestissimo | prestissimo | ochen bistro | juda tez |
| Vivo | vivo | jivo | jonli, tez |
| Vivace | vivache | ochen jivo | o‘ta jonli, tez |
| Veloce | veloche | skoro | tez |
| Allegro | allegro | ojivlenno | tez, shitob ila |
| Allegro maestose | allegro mayestoza | skoro, velichestvenno | tez, tantanavor |
| Allegro con moto | allegro kon moto | skoro, s dvijeniyem | allegrodan tez, xarakat bilan |
| Allegro agitato | allegro adjitato | skoro, vzvolnovanno | tez, hayajonli |
| Allegro con brio | allegro kon brio | skoro, s jarom | tez, g‘ayrat bilan |
| Allegro con fuaco | allegro kon fuako | skoro, s ognem | tez, jo‘shqinlik bilan |
| Allegro brillante | allegro brillyante | skoro, s bleskom, blestyashe | tez, qoyilmaqom |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Allegro furiose | allegro furyozo | skoro, yarostno | tez, shiddat bilan |
| Andante | andante | ne spesha | shoshmay, osoyishta ijro qilinadigan sur'at |
| Andantino | andantino | nemnogo skoreye chem andante | andantadan tezroq, o'rtacha tezlikdagi sur'at |
| Allergo-moderato | allergo-moderato | umerenno skoro | o'rtacha (xiylagina) tez |
| Allegretto | allegretto | dovolno skoro, podvijno | xiyla tez, serharakatlik bilan |
| Allegro non treppo | allegro non troppo | ne slishkom skoro | shoshilmay, qoniqarli tezlikda |
| Commado | kommado | udobno, spokoyno | tinch, osoyishta, bemalol |
| Moderato | moderato | umerenno | o'rtacha, mo'tadil sur'at |
| Sostenuto | sostenuto | sderjanno | vazminlik, bosqinlik bilan |
| Adagio | adajio | medlenno | sekin, tinch, og'ir |
| Adagio assai | adajio assay | vesma medlenno | juda sekin |
| Grave | grave | strogo medlenno, tyajelo | qat'iy, og'ir, sekin |
| Lento | lento | medlenno | sokin, cho'zib |
| Largo | lyargo | shiroko | yayrab, keng |
| Larghetto | lyargetto | nemnogo skoreye chem lyargo | lyargodan sal tezroq, vazmin sur'at |
| Largo assai | lyargo assay | vesma shiroko | juda yayrab, keng |
| A tempo | a tempo (tempo-prima) | pervonachalniy temp | dastlabki sur'at |
| Alla breve | allya breve | v korotkoy monere, ukorochenno | qisqartirilgan, to'rt chorakli o'lchovli taktni ikki o'lchovda taktlashni ko'rsatadi |
| Allargande | allyargando | rasshiryaya, zamedlyaya | yayrabroq, vazminlashtirib ijro etish |
| Ad libitum | ad libitum | po jelaniyu | istagan sur'atda, xohishga qarab |
| Animate | animato | voodushevlenno, ojivlenno | shod-xurramlik bilan |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Agitate | adjitato | vozbujdenno, vzvolnovanno | hayajonlanib, to'lqinlanib |
| All marcia | allya marchya | v duxe marsha | marsh ruhida |
| Appesienate | appassyonato | otrastno | kuchli extiros bilan |
| Amoroso (con amare) | amorozo (kon amare) | lyubovno | mehr-muhabbat bilan, oshiqona |
| Accelerando | achchelerando | uskoryaya | sur'atni tobora tezlata borib |
| Calando | kalando (qisq.kol.) | Zamedlyaya, oslabevaya | sur'at sekinlashib, tovush pasaya boradi |
| Cantabile | kantabile | pevuche | yoqimli, xonish |
| Son grasia | kon gratsia | s gratsiyey | nozik xarakat, latofat, zebolik bilan |
| Con dolore | kon dolore | s grustyu | qayg'uli |
| Con spirito | kon spirito | s chustvom | ixlos bilan |
| Capriccioso | kaprichchiozo | kaprizno | tantiqlik, nozu karashma bilan |
| Doloroso | dolorozo | s bolyu, s toskoy | dardli, g'amgin |
| Dolente | dolente | grustno, jalobno | g'amgin, mungli ovozda |
| Dolce | dolche | nejno | mayin, muloyim |
| Eledante | elegante | elegantno | orastalik, zebolik bilan |
| Energico | energiko | energichno | g'ayrat bilan, qat'iy |
| Eroico | eroiko | geroicheski | qahramonona, mardonavor |
| Espressive (eapr.) | ekspressivo | virazitelno | ifodali, ma'nodor qilib |
| Funebre | funebre | skorono, pechalno | qayg'urib, motamsaro |
| Grandioso | grandiozo | velichestvenno | ulug'vor, tantanavor |
| Giocoso | djookozo | shutlivo, igrovo | hazilomuz, o'ynoqi |
| Imperioso | imperyozo | povelitelno | amirona, shohona ishora bilan |
| Listesse tempo | listesso tempo | totje temp | o'sha sur'at |
| Lacrimoso | lakrimozo | slezno | g'amgin, marsiyaomuz |
| Molto | molto | ochen | juda |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Morendo | morendo | zamiraya | iztirobda (ovozning titrab pasaya borishi) |
| Marcialo | marchalo | legko | yengil |
| Marsiale | mars'ale | voinstvenno | jangari, larzakor |
| Mesto | mesto | pechalno | mayus (g'amgin) |
| Marcato | markato | podcherkivaya | ta'kidlab, urg'u berib |
| Meno mosso | meno mosso | meneye podvijno | bir oz bo'shashib |
| Piu mosso | pyu mosso | boleye podvijno | xarakatchanroq (sur'atning tezlashishi) |
| Pyesante | pezante | tyajelo, gruzno | vazmin, salmoqli |
| Poko a poko | poko a poko | malo po malo | asta-sekin |
| Rallentando (rall.) | rallentando | zamedlyaya | sekinlata borish |
| Riselute (risol.) | rizolyuto | reshitelno | dadil |
| Ritardando (ritart.) | ritardando | zapazdivaya | sur'atning sustlasha va og'irlasha borishi |
| Ritenute (rit.) | ritenuto | zamedlyaya, sderjivaya | sekinlata borish |
| Slargande | slargando | zamedlyaya, rasshiryaya, usilivaya | sur'atni sekinlata borish va tovushni kuchlantira, kengaytira borish |
| Smorzande | smorsando | Zamedleniye, osobleniye | tovushni pasaytira borish, ijroni sekinlatish |
| Sonore | sonore | evuchno | yangroq, jarangdor |
| Spirituoso | spirituozo | oduxotvorenno | ruhlanib, jo'shqinlik bilan |
| Stringendo | strinjendo | gonya (sjimaya) | quvlagannamo |
| Scherzando | skersando | shutlivo | hazilomuz |
| Scherzoso | skersozo | shutlivo | hazilomuz, askiyaomiz |
| Tempestoso | tempestozo | burno | suronli, jo'shib |
| Tempo rubato | tempo rubato | svobodniy temp | erkin sur'at |
| Tenebroso | tenebrozo | mrachno, tainsivenno | dardli, sirli ravishda |
| Tenero | tenero | nejno | muloyim |

pp – pianissimo (pianissimo) – juda past;

r – piano (piano) – past;

mp – mezzo piano (metsso piano) – o‘rtacha past, pianoga nisbatan biroz kuchliroq;

mf – mezzo forte (metsso forte) – o‘rtacha kuchli, metsso pianoga nisbatan biroz kuchliroq;

f – forte (forte) – kuchli;

ff – fortissimo (fortissimo) – juda kuchli;

cresc., crescendo (kreshendo) yoki – (chizma shakli) belgisi asta–sekin tovushni kuchaytirib borishni ko‘rsatadi.

dim., diminuendo (diminuendo) yoki (chizma shakli) belgisi – tovushni asta-sekin pasaytirib borishni ko‘rsatadi.

***ppp*** (piano-pianissimo yoki pianissisimo) – judayam past;.

***fff*** (forte-fortissimo yoki fortissisimo) – judayam kuchli;

***sf*** – sforzando (sforsando) belgisi biror-bir nota yoki akkordni keskin zarb bilan ajratib ijro etilishini ko‘rsatadi.

## 9. Adabiyotlar ro‘yxati

### Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar


1. M. Ivakin. “Xorovaya aranjirovka” 1978
2. V.Litsvenko. “Prakticheskiy kurs po xorovoy aranjirovke” 1976
3. N.Qoziyev. “Xor dirijyorligi xrestomatiyasi”. 1,2,3,4 qism. O‘qituvchi.T. 1975-1978
4. N.Sharafiyeva. “Xor sinfi”. Musiqa. T. 2005
5. E.V.Nechaev “Xorovaya aranjirovka” 2008


## 10.Tayanch so‘zlari

Stakato, avj, aktsent,aranjirovka, alteratsiya, ataka bariton, bas, vokaliz, soz, kuy, ansambl, vokalizatsiya gamma, detonatsiya, diktsiya, distonatsiya, dinamika,

## 11.Xorijiy manbalar


1. Zeydler G. Isskustvo peniya. Moskva, 1964
2. Pavlcheva O. Metodika postanovki golosa. Moskva, 1964
3. Nazarenko I.K. Iskusstvo peniya.
4. Tomilina V.I. Vokalizы. Moskva 1975
5. Frants Abt. Shkola peniya. Moskava 1985
6. Jarov V. Starinnыe russkiye romansы. Moskva. «Muzыki». 1987


## Internet saytlari:


1. www.jzz.ru
2. www.atmuzik.ru
3. www. universalia. nov. ru / instruments.
4. www. muzik. uz
5. www. cassicmuzik.uz
6. www. ixlos.uz
7. http://forum.ziyouz.com


## 12.Foydali maslahatlar

Fanning **maqsadi-** musiqiy ta’lim yonalishi talabalarini xor va yakka ijroga mo‘ljallangan asarlarni turli yoshdagi bolalar va xor jamoalari uchun qayta ishlashga o‘rgatish. Bunda talabalar xor fanlari uchun amaliy jarayonda repertuar tanlash, tanlangan xor asarlarini ko‘povozlik uchun, qizlar xori uchun, bolalar xori uchun, aralash xorlar uchun moslashtirish yollarini va ijro eta bilishni o‘zlashtirishlari nazarda tutiladi. Bunday amaliy - ijodiy ish bo‘lajak vokal jamoalari rahbari faoliyatida zaruriy omillardan bo‘lib, jamoaviy aytim faoliyatida repertuarni kengaytirish imkonini beradi